

## O'ZBEK TILIDA NOAN'ANAVIY KO'MAKCHILAR, YANGI PAYDO BO'LGAN YOKI FUNKSIYASI O'ZGARGAN BIRLIKLARNING NAZARIY ASOSLARI

20-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

*Sattorqulova Shalola To'ychi qizi*

[shalolasattorqulova995@gmail.com](mailto:shalolasattorqulova995@gmail.com)

+998933210495

Yordamchi so'zlar guruhiga kiruvchi ko'makchilarning kelib chiqishi va qaysi turkumlar bilan bog'liqligi hamda noan'anaviy ko'makchilar haqida so'z yuritish ekanimiz. Bunda nazariy bilim berish, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va izohli metod turlaridan foydalanamiz. Ko'makchilar haqida nazariy ma'lumotlar bayon etilib, avvalgi ko'nikmalar takrorlaymiz. Ko'makchilarning boshqa so'z turkumlaridan ko'makchiga aylanish jarayoni, etimologiyasidagi muammoli jarayonlar va boshqa yordamchi so'zlar(bog'lovchi va yuklama)dan farqli jihatlariga izoh beramiz.

Ma'lumki, o'zbek tilidagi yordamchi so'zlar guruhiga bog'lovchi, ko'makchi va yuklama kiradi. Ularning har biri o'ziga xos xarakterga va tuzilishga ega. Ko'makchilar ular orasida eng ko'p tasnif qilinuvchi yordamchi so'z hisoblanadi. Chunki ko'makchilar boshqa yordamchi so'zlar-bog'lovchi yukalamalardan farqli ravishda mustaqil ma'nosini qisman bo'lsa-da, yo'qotmagan so'zlardir. Shuningdek, ko'makchilar so'zning sintaktik xususiyatini belgilab, gap bo'lagi sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish kerakki, o'zbek tilidagi ko'makchilarga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni professor A.N.Kononov bergan: "Ko'makchilar shunday bir gruppaga so'zlariki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi."

Ko'makchilar obyektlar o'rtasidagi makon, vaqt, sabab, maqsad, egalik, chegaralash kabi munosabatlarni ifodalaydi yoki obyektlarning harakatga, holatga, sifatga yuqoridagicha munosabatlarini bildiradi. Ko'makchilarning xususiy ma'nolari biror kelishik formasidagi shaxs yoki predmet bilan qo'shilgandagina yuzaga keladi. Shuning uchun ham A.A.Shaxmatov ko'makchilar kelishik formalarini anglatgan ma'noni mustahkamlaydi, to'ldiradi, kuchaytiradi, - deydi. Ko'makchilar xilma-xil grammatik munosabatlarni ifodalaydi. A.A.Shaxmatov birinchi bo'lib ko'makchilarning grammatik munosabatlarini sistemaga solishga harakat qildi. Rus tilshunosligida ko'makchilar va ularning grammatik munosabatlari V.V.Vinogradov ishlarida to'laqonli o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilshunoslik yo'nalishlarida yangi ma'lumotlar yuzaga kelmoqda. Xususan, o'zbek tilida ham vaqt o'tishi bilan yangi tushunchalar, atama va birliklar aniqlanmoqda. Bu kabi yangiliklarni yordamchi so'z turkumi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, o'zbek tiliga oid darslik va qo'llanmalarining aksariyatida ko'makchilar "bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelib, so'zlar orasida vosita maqsad, sabab, vaqt, makon kabi turli-tuman munosabatlarni ifodalashi" (III. Шоабдурахмонов. 1980: 405; V. Турсунов. 1992: 374); "obyektni obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan grammatik munosabatini ko'rsatishi" (R. Sayfullaeva. 2009: 268) kabi sintaktik ko'rsatkichlardan kelib chiqib izohlanadi. O'zbek tiliga sistem-struktur tamoyilning tatbiq etilishi munosabati bilan esa formal jihatdan so'z shakli, vazifasiga ko'ra kelishik qo'shimchalari bilan o'xshash bo'lgan ushbu nomustaqil birliklarning til tizimida tutgan o'rnini: leksema va affiks morfemalar oralig'idagi uchinchi sifatida (R. Sayfullaeva. 2009: 273); leksema shakllar tarkibidagi neparadigmatik morfemalardan tarkib topadigan affiksoid (III. Рахматуллаев. 2010: 142); lug'aviy birlik va affikslardan farqlanuvchi so'z morfema degan izohlar asosida belgilanishi ham kuzatiladi (A. Хожиев. 2010: 44).

Ko'makchilar ot, olmosh, harakat nomi va sifat doshlardan keyin keladigan so'zlar bo'lib, boshqa so'z turkumlaridan ko'makchiga aylangan so'zlardir. Ularning ba'zilari mustaqil ma'nosini qisman, ba'zilari esa butkul yo'qotgan. Mustaqil ma'nosini qisman yo'qotgan so'zlar ko'makchilar gapning ma'lum o'rinlarida mustaqil so'z bo'lib keloladi. Shu xususiyatiga, ya'ni mustaqil ma'nosini yo'qotish yo'qotmasligiga ko'ra ko'makchilarni ikki guruhga bo'lib o'rganamiz: 1. Sof ko'makchilar 2. Vazifadosh ko'makchilar Sof ko'makchilar mustaqil ma'nosini tamoman yo'qotib, faqatgina ko'makchi bo'lib keladigan so'zlardir. Sh. Abdurahmonov ko'makchilarga quyidagicha ta'rif beradi: "Ko'makchilar obyektning obyektga, yoki obyektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir."<sup>2</sup> Ko'makchilarga bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig' ko'makchilarini misol qilib keltirish mumkin. Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Vazifadosh ko'makchilar ba'zan mustaqil, ba'zan yordamchi so'z vazifasida keladigan, mustaqil so'z vazifasida kelganda atash ma'nosiga ega bo'ladigan so'zlardir. Sodda qilib aytganda, ular yordamchi va mustaqil so'zlar oralig'ida turadi. Vazifadosh ko'makchilar ham o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi:

Ko'makchilar tuzilishi va lisoniy mohiyatiga ko'ra sof, vazifadosh va qo'shimchasimon turlardan tashkil topishidan qat'iy nazar, ularning kelib chiqish manbai mustaqil so'zlar ekani barcha manbalarda yakdillik bilan e'tirof etiladi. T. Rustamovning "Sof ko'makchilar" nomli risolasida esa ushbu etimologik asos sof ko'makchilarning kelib chiqish manbalari vazifadosh shakllar singari mustaqil so'zlarga (asosan ism guruhiga mansub so'zlarga) borib taqalishi (bilan: bir+la, -lan

fe'l yasovchi qo'shimchalarning birikishidan, uchun: uch+un vosita kelishigining ko'shimchasi birikishidan, kabi: "forma, shakl" ma'nosidagi kab, keb, kib+i egalik ko'shimchasining birikishidan) o'zbek tili tarixining XIII-XX asrlariga oid lug'atlar va badiiy manbalarga tayanilgan holda dalillangan.

A.N.Kononov ta'biri bilan aytganda, ko'makchilar ko'p hollarda kelishikning dubleti sanaladi. Ko'makchilarning o'zi ham gapdan tashqarida ma'lum ma'nolarni ifodalaydi. Chunonchi, sari, tomon -yo'nalish ma'nosini, kabi, singari, yanglig' - o'xsharish ma'nosini, qadar- chegara, uchun- atalganlik ma'nolarni ifodalaydi. Nutqimizda keng tarqalgan bilan ko'makchisi bog'lovchilik tabiatiga ham ega. U teng bog'lovchi bo'lib kelganda so'zlar o'rtasida kelib, so'z qo'shilmasini, ko'makchi bo'lib kelganda esa tobe munosabatni ifodalab, so'z birikmasini hosil qiladi.

konstruksiya shiorlar yaratilishida tuzilib, undagi komponentlar turg'un birikma shakliga yaqinlashadi. Ko'makchilarning bunday xususiyatlariga ham ishning yoritilishi jarayonida alohida e'tibor beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, nafaqat yordamchi so'zlar orasida, balki o'zbek tilining boshqa birliklari tasniflanishida ham bir-biriga zid ma'lumotlar, turlicha qoidalar uchrab turadi. Afsuski, tildagi bunday noaniqliklar, ko'pxilliklar tilni chuqurroq tasniflashga, o'rganishga xalaqit beradi. Tildagi bu kabi muammolarni yechishda esa o'zbek tili leksikasiga, lug'at boyligiga oid bo'lgan har bir mulohaza ahamiyatga sazovordir. ko'makchilarni grammatik, funksional, semantik va pragmatik jihatdan tadqiq qilishni takomillashtirish oldimizda turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi va masala o'zbek tilchilarining zimmasidagi vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Rustamov T. Sof ko'makchilar.- Toshkent: Fan, 1991. - 124 b.
4. Berdiyev H. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida so'ngko'makchilar: Filol.fan. nomz. ...dis-ya. - Samarqand, 1949. - 134 b.
5. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap; «O'zbek tili va adabiyoti», 1986. 6- son
6. Xojiyev A. O'zbek tilida morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasallishining nazariy masalalari. - T.: "Fan", 2010.
7. Rahimov A. Leksik va semantik derevatsiya muommolari. - T.: "Navro'z". 2011.